ham, nafs deganda jismoniy bir narsani xayolga keltirishganini sezish qiyin emas. Lekin ruhning g‘ayrimoddiy, vujuddan mustaqil va ayri, vujud yo‘qolsa hamki, latif bir borliq o‘laroq uning yo‘qolmasligi xususida ahli tasavvuf o‘rtasida ixtilof bo‘lmagan” [5;115-b.]. Demak, qissadagi nafs tushunchasiga monand keltirilgan manbada ruh va jism nafsining farqi ham, mohiyati ham oqibatda nafsni taqozo etmoqda. Bu nafsning har qanday vaziyatda odamni Shaytonning yo‘rig‘iga olib borishi, tavbasini ham tazarrusini, e’tiqodi va e’timodini bir tiyinga chiqarishi keng ko‘lamda badiiy mohiyatga aylantirilmoqda. Qissa qahramoni nafsini yengolmay xatodan xatoga ko‘chib yurgan, bilib turib gunoh qilgan, tavqi la’natni bo‘yniga olib, o‘z-o‘zini sud qilib yashayotgan qari choldir. Mana shu jihati sobiq ittifoq davrining odamlarni mute va qul qilib, soxta va sun’iy g‘oya asosida boshqarishi, ongi va tafakkuriga asl ruhning yo‘rig‘ini bajarish uchun emas, o‘tkinchi hoy-u havaslarni amalga oshirish muhimligini singdirganligida qabarib ko‘rinadi.

Qissada yana shunday epizodlar borki, qahramon-roviy nutqi o‘g‘lining monologik nutqini uyg‘unlashtirib, asar konsepsiyasini va asl sabab hamda oqibatning o‘rtasidagi ixtiloflarni anglashga imkon beradi:

“Xudo ojizlarning himoyachisidir. Inson ojiz qolgan pallada unga sig‘inishni yoqtiradi: qay tomondan qaraganda ham u ojizlik belgisi. Inson o‘zini to‘la kashf qilmagani tufayli ham ojizdir. Xudoga ishonish insonni o‘z kuch-qudratiga ishonishdan mahrum qiladi. Ojizlik boshlangan joydan Xudo boshlanadi. Men uzoq vaqt ikkilandim va shuni kashf etdimki, kuch-qudrat Xudoda emas. Menga hali u biron madad qo‘lini cho‘zgani yo‘q, hech qursa men uning qudratini his etganim yo‘q. Aksincha, talabalik yillarida injiq va talabchan o‘qituvchidan baho olish uchun yoki qo‘lim chizmaga bormay qolganda vujudimni qo‘rquv qamrab, ojizlik paydo bo‘lganda, bolaligimda otamning shapolog‘ini yemaslik uchun kitobni zo‘r berib yod olishga kirishganimda, maqsadim yo‘lida to‘siq paydo bo‘lganda, odamlar e’tiboridan qolishdan qo‘rqqanimda, har ishni negadir: “shayton nomi bilan”, deb boshlardim va hamisha ko‘zlagan maqsadimga erishardim. Bugun ko‘rgazmam ochilishi oldidan ham: “Shayton nomi bilan”, deb pichirladim: suratlarim naq g‘ala-g‘ovur bo‘lib ketdi; ko‘rgazmaga kelganlar bu keyingi davrlarning noyob suratlari bo‘lishini e’tirof etdilar” [5;558-b.].

Xulosa va takliflar. Qissaning kulminatsion nuqtalaridan yana biri yozuvchining qahramonlari birin-ketin o‘zlarini fosh qilib borganligida ko‘rinadi. Ayniqsa, o‘g‘li rassomlikning sir-u sinoatlarini puxta egallab, o‘zini o‘qitgan professorning suratini chizib, boshini ilonni boshiga o‘xshatib qo‘yganligida, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan iblis qutqusining nechog‘li butun ruh va tanni muzaffar etganligini asosli talqin qiladi. Rassom shayton nomi bilan boshlaydigan har qanday ishning o‘ngidan kelishi, mavjud tuzumning, sobiq ittifoqning soxta va ko‘z bo‘yamachilikka asoslangan asl basharasi, tavqi la’nat olib tushgan Odam Ato va Momo Havo qismatining ham qorishib ketishi real mohiyat kasb etadi. Nazar Eshonqul romanda mifik metamorfoza yaratadi. Olamning Yaratgan mo‘jizasi oldida insonning qilgan qilmishlari hech va foniydir degan xulosaga keladi. Zero, Shayton qonimizga singib ketgan mangu bir muammolar uyasi ekanligi, undan forig‘ bo‘lishning tasavvufiy va ilmiy yo‘sinlariga ergashish muhimligini ham bilish mumkin. Unda tavbaning chinakam tavbaligi, e’tiqodning mustahkamligi muhim bo‘lishi natijasida oliy nizom qonunlariga bo‘ysunib yashash orqali erishish eng muhim qaror ekanligini inkishof qiladi. Chunonchi, o‘tmishning xatolarini tuzatish insonning bugungi hayotida o‘zligini anglash bilan barobar ekanligini ham namoyon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. Назар Эшонқул. Сайланма. 2-жилдлик, Т., “Akademnashr”, 2022, 513–514-betlar.

[2]. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Т., “Академнашр”, 2013, 236-bet.

[3]. Ҳамроқулова Х. Адабиётда ҳаёт-мамот муаммоси. Т., Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009,142–143-бетлар.

[4]. Жалолиддин Румий. Ичиндаги ичиндадир. Турк тилидан Улуғбек Ҳамдам таржимаси. Т.., “Янги аср авлоди”, 2022, 13-бет.

[5]. Иброҳим Ҳаққул ҳақиқатлари. Т., “Тирилиш”. 2023, 115-бет.

Nazarova Dildora Ilhomovna (Buxoro davlat Tibbiyot instituti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent; e-mail: nazarova.dildora@bsmi.uz)

YANGI O‘ZBEK ADABIYOTIDA MUXAMMAS JANRI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yangi o‘zbek adabiyotida mumtoz she’riyat, klassik janrlarga murojaat, adabiy-estetik hodisalardan ta’sirlanish ustunlik qiladi. Sharq xalqlari, jumladan, o‘zbek adabiyotida ta’bi xud muxammas va taxmis bitish an’anasi juda keng rivojlangan. Muxammas janrining o‘ziga xosligi*

shundaki, unda muallif mavzu, kompozitsion qurilish, uslub, til, ifoda yo'sini jihatidan cheklanmagan bo'ladi

Kalit so'zlar: *ta'bi xud muxammas, istiora, tashbeh, mubolag'a.*

Назарова Дилдора Илхомовна (Бухарский государственный медицинский институт, доктор философских наук по филологическим наукам (PhD), доцент; e-mail: nazarova.dildora@bsmi.uz)

ЖАНР МУХАММАСА В НОВОЙ УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. *В данной статье в новой узбекской литературе доминирует классическая поэзия, обращение к классическим жанрам, влияние литературно-эстетических явлений. В литературе восточных народов, в том числе и узбекской, очень широко развита традиция тахби-мухаммаса и тахмиса. Уникальность жанра Мухаммаса в том, что автор не ограничен в предмете, композиционном строе, стиле, языке, выразительности.*

Ключевые слова: *таби худ мухаммас, метафора, аллюзия, преувеличение.*

Nazarova Dildora Ilhomovna (Bukhara State Medical Institute, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor; e-mail: nazarova.dildora@bsmi.uz)

MUKHAMMAS GENRE IN NEW UZBEK LITERATURE

Annotation. *In this article, new Uzbek literature is dominated by classical poetry, reference to classical genres, influence of literary-aesthetic phenomena. In the literature of the Eastern peoples, including Uzbek, the tradition of tahbi mukhammas and takhmis is very widely developed. The uniqueness of the Mukhammas genre is that the author is not limited in terms of subject, compositional structure, style, language, expression.*

Key words: *tabi khud muhammas, metaphor, allusion, exaggeration.*

Kirish (Introduction). Mumtoz adabiyotda shakllangan badiiy-estetik tafakkur XX asr adabiyotining iste'dodli ijodkorlari uchun ham asos vazifasini bajardi. Bu davr she'riyati o'zining janriy xususiyatlari, mazmun-mundarijasi, ifoda shakllari, badiiy-tasviriy vositalari bilan o'zbek adabiyoti tarixida alohida bosqichni tashkil etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Fuzuliy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy kabi mumtoz adabiyotimizning zabardast vakillari ijodidan ilhomlanib, ularga izdoshlik, an'ana va o'ziga xos uslubda yaratilgan she'riyat durdonalari go'zal va jozibadorligi bilan ajralib turadi. Bunday namunalarning yaratilishida mumtoz adabiyot sir-asrorlarini puxta o'zlashtirgan, aruzning qonun-qoidalarini chuqur bilgan, ko'ngli va qalami g'azalga oshno, turli janrlarda mahorat ko'rsata olgan shoir Zokirjon Habibiyning ham betakror hissasi bor. Sho'x, o'ynoqi yallalari, dilrabo g'azallari bilan xalqimiz qalbidan joy olgan ijodkorning asarlari xalqimiz orasida keng tarqalgan, ijod ahli, muxlislar, san'atga oshno qalblarning ko'ngil gulshanidan mustahkam o'rin egallagan. Shoir mumtoz she'riyatning g'azal, masnaviy, tarje'band, murabba', muxammas, musaddas, ruboiy, tuyuq kabi janrlarida barakali ijod qilgan. ijodida muxammas janrining adabiy izdoshlik va mahorat maktabi sifatidagi namunalari orqali mumtoz adabiyotimizning bebaho an'analari davom ettirilgan. Ular orasida shoir tomonidan yaratilgan muxammaslar alohida o'rin egallaydi. Muxammas ijodkorning tuyg'u-kechinmalarini erkin ifodalash, boshqa shoirlar bilan poetik mahorat bobida musobaqalashish, ijodda kuch sinash, ijodiy-ruhiy bahslashuv, ikki shoirning qalban va ruhan muloqoti sifatida ma'lum va mashhurdir. Janrning bugungi kungacha yashab kelishi va takomili, ijod ahlining sevimli janrlaridan biriga aylanganligi, unga murojaatning o'ziga xos shakl (muloqot muxammas, aytishuv muxammas, madhiya muxammas, salomnoma muxammas)lari mavjudligi ham fikrimiz isbotidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Habibiy devonida 64 ta muxammas namunasi mavjud bo'lib, shundan 58 tasi ta'bi xud muxammas, 6 tasi esa taxmisdir. Taxmislar Alisher Navoiy (1), Fuzuliy (2), Furqat (1), Sobir Abdulla (2) g'azallariga bog'langan. Habibiy devonidagi muxammaslar yor, diyor, vatan, axloq, jamiyatda yuz berayotgan voqealar tasviriga bag'ishlangan. Shoir ijodida "Sayru gulzor", "Ohista-ohista", "Diyorimsan", "Axloq", "Do'st haqida", "Yunis Rajabiyning muzika xizmati haqida", "Samarqand" kabi ta'bi xud muxammaslarining alohida o'rni bor [1].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Habibiyning ta'bi xud muxammaslarida istiora, tashbeh, mubolag'a, lutf kabi she'riy san'atlar faol istifoda etilib, ular shirali, o'ynoqi so'zlar, to'liq va jaranddor qofiyaning san'atkorona qo'llanishi bilan ajralib turadi. Masalan, shoirning "Ohista-ohista" nomli ta'bi xud muxammasida shoir mumtoz adabiyotda faol qo'llanilgan jonon, xiromon, qon, jon, yor, nigor, ash'or, ruxsor, arjumand, pisand, bahramand, xirom, maqom, shom, kom kabi qofiyadosh so'zlarni o'z o'rnida, sama-

rali qo‘llab, yor yo‘liga intizor oshiqning qalb tug‘yonlari, ruhiy holati tasvbiriga xos poetik manzara yarata olgan:

Ajab jononlar ichra tengi yo‘q gulchehra jononim,
Jahon gulzorining oroyishi sarvi xiromonim,
Yurak urgay dukullab o‘ylasam to‘lqin bila qonim,
Hayotim lazzati, jon birla tong yorim qadrdonim,
Tutar, albatta, qoshimda maqom ohista-ohista. [2]

Habibiyning quyidagi ta’bi xud muxammasi yozilish uslubining go‘zalligi, tilining ravonligi, vaznining o‘ynoqiligi bilan o‘quvchiga ko‘tarinki kayfiyat, estetik zavq beradi. Qolaversa, iste’dodli shoir Sharq she’riyatining yetakchi ishq-muhabbat mavzusini ifodalashda Alisher Navoiyga izdosh, ma’shuqa tasviriga navoiyona yondashganligiga guvoh bo‘lamiz. Unda adabiy ta’sir izlari mavjud bo‘lsa-da, shoirning o‘ziga xos badiiy mahorati ham aks etib turibdi. Habibiy badiiy san’atlarni o‘rinli qo‘llash, mutanosib so‘zlarni bir o‘zanga jamlash, tasvir, uslub, ifoda va mazmunda o‘ziga xoslikka erishib, chinakam mustaqil asar yarata olgan:

Qaro ko‘zli, yuzi mohi munavvar dilbarim bordir.
Sadafdek ko‘nglim ichra mehri go‘yo gavharim bordir.
O‘tar lazzatda umrim lafzi Shirin shakkarim bordir.
Dilimda to‘xtamas g‘am mehribon dilparvarim bordir.
Vujudim tuprog‘in zar qilgay andog‘ zargarim bordir. [3]

Ma’lumki, mustaqil muxammaslar tom ma’nodagi mukammal she’rlar bo‘lib, ular g‘azal asosida yaratilmasligi, yoki tazmin tariqasidagi musammatlardek o‘zga she’rdan jumla, misra, bayt kiritilmasligi bilan ajralib turadi. Ko‘pincha, bu tur muxammaslarda:

1. Bandlardagi oxirgi misra bir xil takrorlanadi.

2. Ko‘pchilik g‘azal asosida yaratiladigan taxmislardek, birinchi banddagi oxirgi ikki misra radifi bir xil bo‘lmaydi.

3. Taxallus oxirgi bandning yuqori qismlarida beriladi, g‘azal maqta’idagidek so‘nggi bandning keyingi ikki qismidan birida berilmaydi. Tazmin muxammaslarda bir she’r o‘zga bir she’rga qisman yoki to‘liq iqtibos (ba’zan juz’iy o‘zgarishlar bilan) qilinadi. Tabibiy mustaqil muxammaslari ham shu nazariy qoidaga bo‘ysunadi. Taxallus, asosan, oxirgi bandning yuqori qismida keltiriladi. Shoirning mustaqil muxammaslarida misra yoki bayt tarje’i uchramaydi. Aksariyat mustaqil muxammaslari hayotsevarlikni targ‘ib qiladi. Masalan, “Do‘st haqida”, “Dilbarim bordir”, “Jonajonimga”, “Mehribon bo‘ldi” kabi muxam-maslarida hayotdan zavqlanish, yor go‘zalligi, shirinsuxan dilbar qiyofasi, xo‘blarning xo‘bi, dilkashu shirinsuxan, sho‘xi chapandoz, nozparvar dilrabo, xulqi xush nozik ado bilan qurilgan suhbat, uning go‘zalligidan hayratlanish va baxtu saodatga yo‘ldosh bo‘lish kayfiyati ifoda etiladi. Shoir devonidan davr voqealari tasvirlangan, madh yo‘nalishidagi ta’bi xud muxammaslar ham o‘rin olgan. Uning Farg‘ona kanali qurilishiga bag‘ishlangan “Kanal qazamiz”, “Yangi daryo”, “Yangi temir yo‘l”, “Dongdorlarga”, “Oshkor aylang” nomli she’rlarida ijtimoiy tuzumda bo‘layotgan tarixiy voqea-hodisalarga kanal qazish, temir yo‘l qurish masalalariga munosabati aks ettirilgan. Davrning mashhur kishilariga bag‘ishlab muxammas-marsiyalar yozish adabiyot tarixida uchraydi. Habibiyda bundan farqli o‘laroq, Alisher Navoiy ijodidan faxrlanib yozilgan “Navoiy haqida qo‘shiq”, “Yunus Rajabiyning muzika xizmati haqida” yozilgan muxammaslari mavjud. Mazkur muxammaslarda Habibiyning ulug‘ shoir Alisher Navoiydan ta’sirlanishi, ijodining purma’noliligi, g‘azallarining sehri, Yunus Rajabiy shaxsi, uning o‘zbek musiqasi rivojidagi xizmatlari, san’atkorlik mahorati, “tor-u parda, zer-u bamlar”ni munosib tanlashi, “so‘z bilan kuy ikkisini xo‘b monand etishi”, davra ahlini shod qilib, shogirdlar kamoli uchun shirin uyqusidan kechishi, “san’at bahrida qimmatbaho injularni terishi”ini mahorat bilan tasvirlab bergan.

Shoir mustaqil muxammaslari orasida aruzdan tashqari barmoq vaznida bitilganlari ham uchraydi. Madh yo‘nalishida yozilgan “Samarqand” nomli muxammasi bunga dalildir. “Vatan boyligi” muxammasida shoir taxallus qo‘llamaydi. Umuman, shoir ijodida mustaqil muxammaslarga xos bo‘lgan taxallusning oxirgi bandning yuqori qismida keltirilish holatiga zid ko‘rinishi ham mavjud. Masalan, “Jonajonimga”, “Yolg‘on emas”, “Mehribon bo‘ldi” kabi qator muxammaslarida taxallus maqta’ bandning eng oxirgi misrasida keltirilgan:

Gullamas yashnab Vattan to elda mehnat bo‘lmasa,
Har ish olg‘a bosmagay mehnatga rag‘bat bo‘lmasa,
O‘z elu o‘z yurtiga mehru muhabbat bo‘lmasa,
Xilma-xil fanlar topilmas ilmu g‘ayrat bo‘lmasa,

Har nakim dedim, Habibiy, lof emas, yolg'on emas. [4]

Habibiy ijodida taxmis yozish an'anasi asosida yaratilgan 6 ijod mahsuli uchraydi. Ular orasida shoirning Fuzuliy g'azaliga bog'lagan muxammasi e'tiborlidir. Taxmisda his-tuyg'ularning tabiiy oqimi, Fuzuliy va Habibiy tasvir mahoratining o'ziga xosligi, ifodaning soddaligi, lirik qahramon zavqu ishtiyoqining beg'uborligi she'riy misralarda poetik san'atlarning o'zaro mushtarak, bir-birini to'ldirib kelishi taxmis ikki ijodkor qalbning ma'naviy-ruhiy vobastaligi mahsuli ekanligini dalillaydi. Taxmis bandlarida poetik fikr, obraz, tuyg'u, tushuncha va ifodaning o'zaro mutanosibligi tanosib san'atini yuzaga keltirgan. Taxmis "...shoir ijodiy doirasining kengayishiga, o'tmishdagi ilg'or shoirlar ijodi bilan qiziqishning oshishiga, ular qoldirgan ijodiy traditsiyani egallashga va ularning ilg'or fikrlarini xalqqa yetkazishga xizmat qilgan" [5]:

Ko'nglim olgan bir go'zallarning go'zal jononidur,
Qalbi pok ishq ahlining vijdoni, balkim jonidur,
Partavafshonlikda husn avjin mahitobonidur,
Ul parivashkim malohat mulkining sultonidur,
Hukm oning hukmidur, farmon aning farmonidur. [6]

Ma'lumki, mumtoz she'riyatda yorning betakror go'zalligi baland pardalarda ta'rifu tavsif qilinadi, husn mulkining sultoni sifatida ulug'lanadi, ma'shuqa vasliga yetish umididagi oshiqning ko'ngil iztiroblari she'rning mazmun mohiyatini belgilab, shoirning poetik maqsadini ifodalaydi. Buni ikki shoir ham teran nigoh, hassos qalb va san'atkorona did bilan anglay olgan. Yuqoridagi band buning yorqin isbotidir. Fuzuliyning matla baytidagi poetik mazmunga mos manzara yaratish uchun Habibiy ko'ngil, qalb, vijdon, pok; go'zal, jon, jonon, mahitobon, sulton; hukm, farmon kabi so'zlar vositasida tanosib san'atini hosil qilgan. Parivash, malohat mulkining sultoni, go'zallarning go'zal jononi kabi sifatlashlar orqali lirik qahramonning holati, ma'shuqa go'zalligidan masruru mag'rurligi, yor go'zalligidan faxr tuyg'usi ifodalangan. Habibiyning Fuzuliy g'azaliga bog'lagan 2 taxmisi ham muvaffaqiyatli chiqqan. Shoirning Alisher Navoiy g'azaliga bog'lagan taxmisida vazndagi nomutanosiblikni e'tiborga olmasak, ulug' shoir g'azalidagi poetik mazmunni davom ettira olgan. Soz tanlashda o'ziga xos individuallikni namoyon qilgan. Masalan, ma'shuqa vaslidan umidvor oshiqning kunu tuni qora ekanligi mumtoz adabiyotda ma'lumu mashhur istioradir. Habibiy esa yor vasliga yetisha olmaganliginidan kunlarining qoraligini shodligi yo'q "qora ayyom"ga qiyoslaydi. Bu shoirning individual istiorasidir:

Vaslidin qildim umid andishayi xomim bila.
Kelmadi bir yo'l kutib taklifu e'lomim bila,
Qayda bo'lsin shodlig' bu qora ayyomim bila,
Bir qadah may ichmadim sarvi gulandomim bila.
Bir nafas uyrilmadi davron mening komim bila. [7]

Habibiy tasvirni davom ettirar ekan, Alisher Navoiy poetik maqsadiga mos misralar ijod qilishga urinadi. Ulug' shoir g'azal misralariga singdirgan ma'noni ilg'ashga, uning g'oyasini rivojlantirishga harakat qiladi. Ohorli tashbehlar, betakror poetik timsol va ramzlardan foydalanishga oshiqadi. Taxmisning 3-bandi bu jihatdan e'tiborli. Unda shoirning dunyoqarashi, ijodkorligi, ruhiy va hissiy olami hamda san'atkorlik mahoratining o'ziga xosligi yuzaga chiqqan. Fuzuliy tasviricha, g'azalning 3-baytida tunda yor vasliga yetishish onlarini intizorlik bilan kutgan oshiqning hafsalasi pir bo'ladi. Oshiq hijron azobida qiynaladi. Kunduzu ishdan, hijrondan qiynalgan oshiqning pajmurda joni tunga yetib bormaydi. Endi oshiq uchun subh ham, shom ham yo'q. Bu holatni Habibiy ham chiroyli tasvirlaydi. Shom payti shafaqning qizarib botish holatini shoir "bir kecha mahliqoning yonida bo'lish uchun oshiq har kunning yakunini – shomni kutishini, shom ham ko'k etagining qonida" ekanligidan hayratlanadi. Ya'ni, shomning ham bag'ri qon, u-da ma'shuqa hajrida bag'rini dog'lab, uning vasliga erishish uchun qonga to'lgan. "Shomni ko'rdim yiroqdin ko'k etokin qonida" kabi tasvir Habibiyga xos bo'lgan poetik manzaradir. Bu misralarda shom, shafaq – kun botish holati oshiqning qontalash bag'riga o'xshatilgan. Taxmis ohangidagi soddalik o'ynoqilik, jo'shqinlik, his-tuyg'u ifodasi va she'riy vazn mushtarakligi o'ziga xos ohangdorlikni hosil qilgan:

Bir kecha bo'lmoq uchun ul mahliqoni yonida,
Ko'z tutarmen tunga doim kunni bepoyonida,
Shomni ko'rdim yiroqdin ko'k etokin qonida,
Tunga yetmas kunni o'tkardim o'lib hijronida,
Kunga yetkaymu vah bu subh yo'q shomim bila.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, Habibiy ijodida muxammas janri namunalari salmoqli o'rin egallab, ularda an'anaviy ishq mavzusi, oshiq-

ma’shuq-ag‘yor uchligi, gul, bulbul, gulshan, boda, may, qadah, ulfat, zohid kabi timsollar yetakchilik qilgan. Taxmislar asosi uchun tanlangan g‘azallar tasodifiy bo‘lmay, bunda shoirlarning ruhiy-ma’naviy yaqinligi, ijod dardi, qalb tug‘yonlari, ichki kechinmalari, dunyoqarashi, saviyasi, poetik shakl, mazmun, maqsad va mahorat mushtarakligi yuzaga chiqqan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Boltayeva G. O‘zbek she’riyatida muxamas janri: genezisi, badiiy takomili. Fil.fan.dokt. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati, Toshkent, 2024, 26-bet.

(2). Ҳабибий. Девон. Тошкент, Ғафур Ғулом, 1980, 362-bet.

(3). Ҳабибий. Девон. Тошкент, Ғафур Ғулом, 1980, 357-bet.

(4). Majidiy R. Ogahiy lirikasi. Toshkent, “Fan”, 1963, 89-bet.

Abdullayeva Umida Abdumutal qizi (O‘zbekiston Milliy universiteti doktoranti; umidaabdullayeva0306@icloud.com)

JAHON ADABIYOTIDA AYOL OBRAZLARI: TARIXIY DAVRLAR VA TADRIJIY TAHLIL

Annotatsiya. *Maqolada jahon adabiyotida yoritilgan ayol obrazlarining badiiy adabiy tahlili hamda tarixan shakllanish bosqichlari aks ettirilgan. Shuningdek, jahon adabiyotining har bir rivojlanish bosqichlariga oid badiiy asarlarda ayol obrazlari, ularning ifodalanishi, feminizm masalalari kabilar ham qamrab olingan. Jahon adabiyotidagi asarlarni tahlil qilar ekanmiz, ulardagi ayol obrazlarining yoritilishi, asarlardagi ayollarga bo‘lgan munosabat, o‘ziga xos jihatlari aks ettiriladi. Shuni ta’kidlash kerakki, jahon adabiyotida ayol obrazi ifodasi davrlar davomida o‘zgarib borgan. Asarlar tahlilida, asosan, ayollarning jamiyatda tutgan o‘rni, oilaviy munosabatlar, jamiyatda ayollarning tan olinish masalalari ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.*

Kalit so‘zlar: *jahon adabiyoti, adabiyotni davrlashtirish, ayol va jamiyat, ayol obrazi, jahon adabiyoti rivojlanish bosqichlari.*

Абдуллаева Умида Абдумутал кизи (докторант Национального университета Узбекистана; umidaabdullayeva0306@icloud.com)

ЖЕНСКИЕ ОБРАЗЫ В МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: ИСТОРИЧЕСКИЕ ЭПОХИ И ПОЭТАПНЫЙ АНАЛИЗ

Аннотация. *В статье представлен художественно-литературный анализ женских образов, освещенных в мировой литературе, а также этапы их исторического становления. Также в художественных произведениях, относящихся к каждому этапу развития мировой литературы, затрагиваются такие вопросы, как женские образы, их выражение, вопросы феминизма. При анализе произведений мировой литературы отражается освещение в них женских образов, отношение к женщинам в произведениях, их специфика. Следует отметить, что выражение женского образа в мировой литературе менялось с течением времени. В анализе работ в основном также отчетливо прослеживаются вопросы о роли женщин в обществе, семейных отношениях, признании женщин в обществе.*

Ключевые слова: *мировая литература, периодизация литературы, женщина и общество, женский образ, этапы развития мировой литературы.*

Abdullayeva Umida Abdumutal kizi (Doctoral student at the National University of Uzbekistan; umidaabdullayeva0306@icloud.com)

FEMALE IMAGES IN WORLD LITERATURE: HISTORICAL EPOCHS AND PROGRESSIVE ANALYSIS

Annotation. *The article presents an artistic and literary analysis of female images highlighted in world literature, as well as the stages of their historical formation. The works of fiction related to each stage of the development of world literature also address issues such as female images, their expression, and issues of feminism. When analyzing the works of world literature, the illumination of female images in them, the attitude towards women in the works, and their specifics are reflected. It should be noted that the expression of the female image in world literature has changed over time. In the analysis of the works, questions about the role of women in society, family relations, and the recognition of women in society are also clearly traced.*

Keywords: *World literature, periodization of literature, woman and society, female image, stages of development of world literature.*